

№ 07/03/002

111-1472

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI



№ 07/03/002  
2024 y.

№ 07/03/002

№ 07/03/002

2024 yil "07" iyun

SANOAT SANITARIYASI VA GIGIENASI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	1000000 – Xizmatlar
Ta'lim sohasi:	1020000 – Gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi
Ta'lim yo'nalishi:	61020200 – Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda)

Qarshi – 2024

30

Fan/modul kodi SSG3504 -SSG3606		O'quv yili 2024-2025	Semestr 5-6	ECTS - Kreditlar 4-6
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 4-6	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
1	Sanot sanitariyasi va gigienasi	60-90	60-90	120-180
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarni ishlab chiqarishda xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini yaratishning nazariy va amaliy jihatdan tayyorlash, ishlab chiqarish muhitida mehnat bozorining raqobatbardoshligini ta'minlash va aholi bandligini ta'minlash tizimini o'rgatishdir</p> <p>Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, mehnatni muhofaza qilish jarayonlarga uslubiy yondoshuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatchilikni shakllantirish orqali insonning hayotdagi o'zini va ahamiyatini ochib berish.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>2.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Kirish. Ishlab chiqarish sanitariyasi va gigiyenasi, me'yorlari, mazmuni.</b></p> <p><i>Gigiyena</i> - (yunoncha. "hygieinos" - sog'lom) so'zidan olingan bo'lib, odamlar salomatligiga tashqi omillari ta'sirini o'rganadigan fanidir.</p> <p><b>2-mavzu. Sanoat sanitariyasi va mehnat gigiyenasi haqida tushuncha.</b></p> <p>Sanoat sanitariyasi va gigienasi haqida umumiy tushuncha, bu ikkala ko'rsatkichlar bir-biridan keskin farq qiladi.</p> <p><b>3- mavzu. Mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi sohasida huquqiy- tashkiliy asoslari.</b></p> <p>Mehnatni muhofaza qilish tizimi, mehnat qonunchiligi hujjatlari davlat va kasaba uyushmasi qarorlari va farmonlari ham texnikaviy hujjatlar asosida boshqariladi. Ishlab chiqarish korxonalarida xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitini ta'minlashda mehnat muhofaza-zasi, xavfsizlik texnikasi, sanitar-</p>			

gigiyenik, yong'in xavfsizligi boshqa bir qator standartlar, me'yorlar, qoidalarga bog'liq yo'riqnomalar katta ahamiyatga ega.

**4-mavzu. Texnosferada havo muhitining ko'rsatkichlari, ularning mehnat faoliyatiga ta'siri.**

Yuqori haroratlarda ishlash kuchli terlash bilan bog'liq bo'lib tanada suv yetishmasligi, mineral tuzlar va suvda eriydigan vitaminlar yetishmasligiga olib keladi, yurak-qon tomir tizimidagi faoliyatga jiddiy ta'sir qiladi va me'yoriy faoliyat o'zgaradi, nafas olish chastotasi oshadi.

**5-mavzu. Inson mehnat faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar.**

Insonga organizmiga havo muhiti orqali- noqulay mikroqulim ko'rsatkichi, changlar, gazlar, shovqinlar, infratovushlar va ultra-tovushlar ta'sir etsa, ish joyida esa yoritilganlik, titrash, elektro-magnit to'lqinlar, infraqizil va ultrabinafsha, radioaktiv va boshqa nurlanishlar bevosita yoki bilvosita ta'sir etadi.

**6-mavzu. Xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlarini yaratish yo'nalishlari va uslublari.**

Ishlab chiqarishda zararsiz va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish uchun quyidagilarni bajarish lozim: texnologik jarayonlarni, ish tartibini va uslubini to'g'ri tanlash; ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni to'g'ri bajarish; qulay ish sharoitlarini yaratish; xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlarni to'g'ri tanlash; ish o'rinlarini to'g'ri tanlash va jihozlash; himoya vositalaridan oqilona foydalanish; xavfsizlik talablariga amal qilish; kasbiy tanlov o'tkazish va xodimlarni o'qitish; me'yoriy-texnik va texnologik hujjatlariga xavfsizlik talablarini kiritish va boshqalar.

**7-mavzu. Ishlab chiqarish korxonalarini pasportlashirish tartibi.**

Pasportlashirishni bo'lim va bo'linma rahbarlari o'tkazadilar, agar ish joyida noqulay omillar faollashganda, ayniqsa kuz va qish fasllarida, uni har kuni mehnat xavfsizligi bo'yicha muhandis nazorat qilishi shart.

**8-mavzu. Mehnat sharoitlarini baholash va mehnat sharoitlari bo'yicha ish o'rinlarini attestatsiya qilish metodikasining mazmuni va mohiyati.**

Ish o'rinlarining, mashina va mexanizmlar, texnologik jarayonlar, bino va inshootlarning amaldagi MXST, SanQvaM, mehnat xavfsizligi, texnika xavfsizligi va yong'in xavfsizligi qoida va talablariga javob berish yoki bermasligini, hamda mehnat xavfsizligi chora-tadbirlarini rejalashtirish uchun kerakli ma'lumotlarni to'plash maqsadida ish o'rinlarida attestatsiya o'tkaziladi.

**9-mavzu. Sanoat korxonalarini sanitariya jihatidan loyihalash talablari.**

Ishlab chiqarish korxonasi bilan aholi yashaydigan maskan oralig'idagi masofa sanitar-muhofaza oralig'i deb ataladi. Bu sanitar-muhofaza oralig'i ishlab chiqarish korxonalarini sinflariga qarab, mos ravishda, quyidagicha belgilanadi, m: 1000, 500, 300, 100, 50. Sanitar-muhofaza oralig'i

ko'kalamzorlashtirilgan va unda sog'lomlashtirish chora-tadbirlari belgilangan bo'lishi kerak.

**10-mavzu. Ishlab chiqarish korxonalarida xavfsizlik belgilari va signal tizimlari.**

Ba'zi bir xavfli vaziyatlarda ogohlantirish vositasi sifatida signal tizimlaridan foydalaniladi. Bajaradigan vazifasiga ko'ra, signal vositalari amaliy, ogohlantiruvchi va belgilovchi turlarga bo'linadi. Bundan tashqari, tovushli va ko'rinadigan bo'lishi mumkin. Tovushli signal tizimiga sirena, qo'ng'iroq, ovozli signal va boshqalar kiradi.

**11-mavzu. Mehnatni muhofazasi qilish fanining ijtimoiy-iqtisodiy va texnik ahamiyati.**

Mehnat muhofazasining ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati juda muhim hisoblanadi chunki, bu ishlovchilarning umumiy mehnat qilishlariga bog'liq holat.

**12-mavzu. Ishlab chiqarish xonalari mikroqulimi sharoitini meyorlashtirish.**

Ishlab chiqarish xonalari (texnosfera) da mikroqulim muhiti:

-havo harorati, (°C);

-havoning nisbiy namligi (%);

-havo bosimi (mm. simob ust. yoki Pa);

-havo harakati yo'nalishi (m/s)

-issiqlik nurlanishi kabi omillar orqali belgilanadi.

Aynan ushbu omillar ish joylaridagi mikroqulim sharoitini tashkil etadi.

**13-mavzu. Mikroqulim ko'rsatkichlarini nazorat qilishva o'ichash asboblari.**

Mikroqulim ko'rsatkichlarini o'lchov asboblari psixrometr, termometr, katatermometr, aktinometr, anemometrlar haqida umumiy tushuncha olish.

**14-mavzu. Ishlab chiqarishda optimal mikroqulim sharoitini yaratish.**

Mikroqulim sharoitlarini to'liq holatda bo'lishi optimal sharoit hisoblanadi.

**15-mavzu. Ishlab chiqarish chang moddalarning inson organizmiga salbiy ta'siri.**

Sof toza havo bir qancha gazlar aralashmasidan iborat bo'lib, uning tarkibida, 77% azot, 21% kislorod, 1% is gazi va 1 % boshqa faol inert gazlar tashkil etadi. Lekin ishlab chiqarish sharoitidagi ish joyi havosi ishlab chiqarish texnologiyasi va ish sharoitiga bog'liq holda turli xil zararli changlar va gazlar bilan ifloslangan.

**16-mavzu. Chang ta'sirida kelib chiqadigan kasalliklar va ularning oldini olish.**

Ishlab chiqarish changi ta'sirida o'ziga xos kasalliklar (pnevmoniozlar, surunkali bronxitlar) hamda laringit, traxett, teri

kasalliklari paydo bo'lishi mumkin.

**17-mavzu. Zararli va zaharli moddalarning inson organizmiga tasiri.** Ishlab chiqarishdagi asosiy kimyoviy moddalar zaharli xususiyatga ega bo'lib, ular inson organizmiga oz miqdorda tushsa ham kimyoviy zaharlanishi sog'lig'i yomonlashishiga olib keladi. Bu moddalar qattiq, suyuq, gaz yoki bug' holatlarida bo'lishi mumkin.

**18-mavzu. Kimyoviy birikmalarni baholash, zaharlilik miqdorini aniqlash.**

Kimyoviy birikmalar sanoatda va qishloq xo'jaligida keng miqyosda qo'llaniladi. Kimyoviy birikmalar metallurgiya sanoatida, foydali qazilmalarni qazib olishda, metallarni qayta ishlash sanoatida, plastmassa va sintetik qatqilamali mahsulotlar olishda qo'llaniladi.

**19-mavzu. Ishlab chiqarish korxonalarini shamollatish tizimi.** Iqtisodiyot tarmoqlarida juda ko'p texnologik jarayonlar inson sog'lig'iga zararli ta'sir ko'rsatuvchi omillar yuzaga kelishi bilan kechadi. Bu zararli omillar organik va norganik moddalarning changi, ortiqcha namlik va issiqlik, gaz, bug', aerosol va h.k. ko'rinishida bo'lishi mumkin.

**20-mavzu. Ishlab chiqarish korxonalarida umumiy mexanik havo almashtirish tizimini hisoblash uslublari.**

Sun'iy shamollatish mexanik qurilmalar va boshqa moslamalar orqali amalga oshiriladi. Shamollatish qurilmalari havo oqimining yo'nalishiga qarab uzatuvchi yoki so'ruvchi holatda bo'lishi mumkin.

**21-mavzu. Ishlab chiqarish korxonalarini yoritish tizimi.**

Ko'rish a'zolari har qanday ismi bajarishda ishtirok etadi, Har qanday ismi bajarish ish joylarida yetarlicha yorug'lik bo'lishini talab qiladi. Ish joylari yetarli darajada yoritilganda ish sifati oshadi, chunki bunda kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlanadi shikastlanishlar kamayadi.

**22-mavzu. Ishlab chiqarishda yoritishga qo'yiladigan sanitar-gigiyenik talablar.**

Ish joylarini yoritish sanitar-gigiyenik me'yorlar asosida ish kategoriyalariga moslashgan bo'lishi kerak. Ba'zi bir aniq ishlarni bajarganda yoritilishni 50 - 1000 lk oshirish bilan ish umumdorligini 25% oshganligi ma'lum. Ko'z bilan ko'rib ishlash unchalik shart bo'lmagan qo'polroq ishlarni bajarganda ham yoritilishni 50 - 300 lk oshirish, ish umumdorligini 5-7% ga oshirgan.

**23-mavzu. Ishlab chiqarishda shovqin.**

Sanoat korxonalarida texnologik jarayonlar natijasida qattiq, suyuq, gazsimon muhitlarda paydo bo'ladigan har qanday tebraniyalar turli mexanizmlar ishlaganda hosil bo'ladigan shovqinlar-ning asosiy manbai hisoblanadi.

**24-mavzu. Ishlab chiqarishda shovqin inson organizmiga ta'siri va gigiyenik me'yorlashirish.**

Shovqin kishi organizmiga umumbiologik qo'zg'atuvchi sifatida ta'sir ko'rsatadi, faqat eshitish a'zolariga ta'sir qilib qolmay, bosh miya strukturasiga ham ta'sir ko'rsatadi, buning oqibatida organizmda ayrim funksional o'zgarishlar yuz beradi.

**25-mavzu. Ultra va infratovushlarning inson organizmiga zararli ta'siri.**

Infratovush ultratovushga nisbatan amaliy kamroq o'rganilgan shu sababli ham kamroq qo'llaniladi. Infratovush yuqori daraja-sida ortiqcha charchoq, uyqusizlik, tajovuzkorlik va quloqlarda bosim hissi paydo bo'lishi mumkin.

**26-mavzu. Ishlab chiqarishda titrash.**

"Titrash" - deb hech bo'lmaganda bitta koordinata bo'ylab, nuqta yoki mexanik tizimning vaqt birligida navbatma navbat ortib va kamayib turuvchi harakatiga aytiladi

**27-mavzu. Ishlab chiqarishdagi titrashdan himoyalovchi shaxsiy himoya vositalari va titrashni o'lchash vositalari.**

Ko'plab ishlatiladigan o'lchash asboblari orasida ISHB-1 va VIP-2 ni vibrometrlari ko'rsatib o'tish mumkin. Chet el apparatlari ichida Daniyaning "Bril va Ker" firmasida ishlab chiqarilgan o'lchash qurilmasi va Germaniyada ishlab chiqilgan RFT apparati komplektini ko'rsatish mumkin.

**28-mavzu. Titrashni inson organizmiga zararli ta'siri.**

Qo'lga titrash beruvchi moslamalar yoki ishlanadigan qism og'irligi sanitariya qoidasiga binoan 10 kg dan oshmasligi kerak. Bundan tashqari, ish joylarida harorat 24°S dan kam bo'lmashligi, nisbiy namlik 40-60% orasida bo'lishi va havo harakati tezligi 0,3 m/sek dan oshmasligi lozim.

**29-mavzu. Ishlab chiqarishda zararli va xavfli nurlar sodir bo'lishi haqida tushuncha.**

Ishlab chiqarishda: infraqizil, ultrabinafsha, elektromagnit va radioaktiv va boshqa bir qancha nurlarning turi tarqalgan.

**30-mavzu. Elektromagnit maydon tasnifi va inson organizmiga ta'siri.**

Nurlanish zonasida esa maydon harakatlanayotgan elektro-magnit to'liqini vujudga keltiradi va harakatlanayotgan to'liqning muhim parametri to'liq oqimining zichlik quvvati hisoblanadi.

**31-mavzu. Lazer nurlari tasnifi va inson organizmiga ta'siri.**

Lazer (ing. laser; Light Amplifi cation by Stimulated Emission of Radiation - majburiy nurlanish yordamida yorug'likni kuchaytirish ma'nosini anglatadi. Lazer — ingichka, ko'zni qamashtiradigan darajada o'tkir yorug' nur tarqatuvchi uskumadir.

**32-mavzu. Radioaktiv nurlar tasnifi va inson organizmiga ta'siri.**

Radioaktiv nurlanishlar ionlovchi nurlanishlar ham deb ataladi, chunki bu nurlar ta'sir etgan moddalar atom va molekularida ionlar hosil bo'ladi.

Ionlashtiruvchi nurlanish moddalarga ta'siri radiatsiya deb ataladi.

**33-mavzu. Radioaktivlik xossalari.**

Radioaktiv moddalar bilan ochiq holda ishlaganda ularning zararli nurlanish aktivligiga qarab uch sinfga bo'linadi.

**34-mavzu. Radiatsiyaviy avariyalarda aholiga tibbiy yordam ko'rsatish profilaktik choralari.**

Dozimetrik nazorat – bu aholi yoki xodimlar ishlab chiqarish faoliyati davomida individual va jamoaviy xolda turli xil ionlashtiruvchi manbalardan nurlanish aktivligi yoki unga teng keladigan dozani o'lchashdir.

**III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. SanQvaN O'zR № 0324-16 Sanoat binolari mikroiqlimining sanitariya normalarining tahlili.
2. Ishlab chiqarish korxonalari zararli changlar miqdorini me'yolashtirish usullarini o'rganish.
3. Ishlab chiqarish korxonalari zararli moddalar miqdorini me'yolashtirish usullarini o'rganish.
4. Ishlab chiqarish korxonalari mehnat og'irligi va kuchlanganligini baholash.
5. Ishlab chiqarish korxonalaridagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish.
6. Baxtsiz hodisalarni tahlil qilish uslublari va jarohatlanish ko'rsatkichlarini aniqlash.
7. Xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi bo'yicha ko'rsatmalar tuzish.
8. Mehnatni muhofazasi tadbirlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini hisoblash.
9. Ishlab chiqarish xonalarini tabiiy yoritishni hisoblash.
10. Ishlab chiqarish xonalarini sun'iy yoritishni hisoblash.
11. Ishlab chiqarish xonalarini umumiy shamollatishni hisoblash.
12. Uskunaning shovqin darajasini hisoblash.
13. Uskunaning titrash izolyatsiyani hisoblash.
14. SanQvaN O'zR № 0224-07 Shaxsiy kompyuterlarda, video displey terminallarida va ofis jihozlarida ishlashda sanitariya qoidalari va normalarining tahlili.
15. Radioaktiv, kimyoviy va biologik (bakteriologik) moddalardan zararlangan tovar moddiy boyliklarni zararsizlantirish vositalarini o'rganish.

**IV. Laboratoriya ishi bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Laboratoriya ishi o'quv rejada rejalashtirilmagan.*

**V. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**V. Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi sanoat sanitariyasi va gigienasiga oid huquqiy-normativ hujjatlar tahlili.
2. Inson mehnat faoliyatining fiziologik-gigienik asoslari.
3. Ishlab chiqarish changlari moddalarni tozalash qurilmalari.
4. SanPiN 0269-09 radiochastotalarning elektromagnit maydonlari manbalari bilan ishlashda.
5. SanPiN 0252-08 Radiozotop qurilmalarini loyihalash va ishlatish uchun gigienik talablar.
6. SanPiN 0236-07 Yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyalari yaqinida yashovchi aholi xavfsizligini ta'minlash to'g'risida.
7. ҚМҚ 2.04.05-97- “Иситиш, шамоллатиш и кондициялаш”.
8. ҚМҚ 2.01.05-98 -“Табиий ва сунъий ёритиш”.
9. Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida (31.08.2000y).
10. SanQvaN O'zR № 0141-03 Mehnat muhitini zararli va xavfli ko'rsatkichlar, ishning og'irligi va shtammlari bo'yicha gigienik tasniflash (06.10.2003y).
11. СанҚваМ 0193-06-“Радиация хавфизлиги меъёрлари”
12. SanQvaN O'zR N 0224-07 Shaxsiy kompyuterlarda, video displey terminallarida va ofis jihozlarida ishlashda sanitariya qoidalari va normalari (29.03.2007 y.).
13. (СанҚваН) 0324-16.-“Ишлаб чиқариш хоналарида микроклим холати санитар-гигиеник меъёрлари”
14. SanQvaN O'zR № 0325-16 Ish joyidagi shovqin darajasi uchun sanitariya me'yorlari (01.02.2016 y.).
15. SanQvaN O'zR № 0324-16 Sanoat binolari mikroiqlimining sanitariya normalari (01.02.2016 y.).

**VI. Kurs ishi (loyihasi) bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Kurs ishi (loyihasi) o'quv rejada rejalashtirilmagan.*

**VII. Mustaqil talim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar, keys stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqiladi. Ma'ruza mavzulari bo'yicha amaliy topshiriq, keys - stadilar yechish uslubini va mustaqil ishlab

<p>uchun vazifalar belgilanadi.</p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish.</li> <li>2. O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri).</li> <li>3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi o'rganish.</li> <li>4. Mehnat muhofazasi bo'yicha o'qishlarni tashkil qilish va bilimlarni sinash to'g'risida namunaviy nizom.</li> <li>5. Mehnat muhofazasi bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risida namunaviy nizom.</li> <li>6. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida nizom.</li> <li>7. Radiyasiyaviy xavfsizlik to'g'risidagi qonuni. 31.08.2000y</li> <li>8. SanQvaN O'zR № 0141-03 Mehnat muhifini zararli va xavfli ko'rsatkichlar, ishning og'irligi va shtammlari bo'yicha gigienik tasniflash.</li> <li>9. SanQvaN O'zR N 0224-07 Shaxsiy kompyuterlarda, video displey terminallarida va ofis jihozlarida ishlashda sanitariya qoidalari va normalari.</li> <li>10. SanQvaN O'zR № 0324-16 Sanoat binolari mikroiklimining sanitariya normalari.</li> <li>11. SanQvaN O'zR № 0325-16 Ish joyidagi shovqin darajasi uchun sanitariya me'yorlari.</li> <li>12. Mehnat muhofazasini ta'minlashga oid xalqaro tajriba va izlanishlar taxlili.</li> <li>13. Mehnat muhofazasini ta'minlashga oid chet davlatlarda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar taxlili.</li> <li>14. O'zbekiston Respublikasi "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning mohiyati va uning mazmuni.</li> <li>15. Mashina va mexanizmlar uchun texnika xavfsizligi talablari keltiriladigan me'yoriy hujjatlar tizimi.</li> <li>16. Davlat yong'in xavfsizligi xizmati.</li> <li>17. Respublika bo'yicha yong'inlar sodir bo'lishi va ularda ko'riladigan zararlarni to'g'risida statik ma'lumotlar taxlili.</li> <li>18. Yong'in dan himoyalashning zamonaviy texnik vositalari.</li> <li>19. O'zbekiston Respublikasi "Xavfli sanoat obyektlarida sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonunning mohiyati va uning mazmuni</li> <li>20. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish to'g'risida Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 apreldagi 246-son qarori mohiyati va uning mazmuni</li> <li>21. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar</li> </ol>
-------------------------------------	---

<p>Mahkamasining 1997 yil 6 iyundagi 286-son qarorining mohiyati va uning mazmuni.</p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>22. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 7 yanvarda 2000 yilda 870-son bilan ruyxatga olingan Mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomaga ishlab chiqish tartibi.</li> <li>23. Mehnat kodeksi mohiyatining mohiyati va uning mazmuni.</li> <li>24. Mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitishni tashkil etish bo'yicha GOST 12.0.004-90 ning mohiyati va uning mazmuni.</li> <li>25. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 7 yanvarda 870-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan mehnat muhofazasi bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish to'g'risida Nizomning mohiyati va uning mazmuni.</li> <li>26. "Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.</li> <li>27. "Chiqindilar to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.</li> <li>28. "Sanitariya nazorati to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.</li> <li>29. "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi qonun bandlarini o'rganish.</li> <li>30. Tashkilotlardagi mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishdagi xavfli obyektlari.</li> <li>31. Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligini boshqarishni xududiy, ishlab chiqarishdagi darajasi.</li> <li>32. Korxonalarda ishchilarni mehnatni muhofaza qilishni tashkillashtirish.</li> <li>33. Ish joylarini sharoitiga ko'ra attestatsiya qilish, korxonalaridagi mehnatni muhofazalash ishlari bo'yicha sertifikatlash.</li> <li>34. Davlatimizda va chet eldagi hayot faoliyati xavfsizligining madaniyatini holati.</li> <li>35. Mehnat muhofazasining madaniyatini umumiy tavsifi, uning tarixiy, falsafiy, ijtimoiy va diniy asoslari.</li> <li>36. Hayot faoliyati xavfsizligining madaniyatini tashkil etish obyektlari.</li> </ol> <p><b>VIII. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- O'zbekiston Respublikasi, xamdo'stlik mustaqil davlatlari, boshqa yetakchi davlatlardagi mehnat bozorining hozirgi vaqtidagi masalalari;</li> <li>- bilimlarning bir butun tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda ushbu fanning asosiy muammolari;</li> <li>- sanot sanitariyasi va gigienasining umumiy masalalari;</li> <li>- sanot sanitariyasi va gigienasining huquqiy - me'yoriy asoslari;</li> <li>- sanot sanitariyasi va gigienasining tashkiliy masalalarni va bulardan kelib chiqayotgan muammolarni yechish bo'yicha <i>tasavvurga va bilimga ega</i></li> </ul>
--	---

<p><b>bo'lishi;</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mehnat qilish va dam olishning maqbul sharoitlarining inson fiziologiyasiga ta'siri;</li> <li>- insonga xavfli va zararli omillarning ta'sir qilish darajalari;</li> <li>- ishlab chiqarish sanitarriyasiga qo'yiladigan talablar;</li> <li>- ishlab chiqarish gigienaga qo'yiladigan talablar;</li> <li>- ishlab chiqarish sanitarriyasiga va gigienasining huquqiy-meyoriy asosini tashkil qiluvchi hujjatlar tizimi bilan ishlashni ko'nikmalariga ega bo'lishi;</li> <li>- ishlab chiqarishdagi yuzaga keladigan zararli omillarini tekshirish, o'rganish va tahlil qilish asoslarini;</li> <li>- shaxsiy va jamoa himoya vositalaridan foydalanish malakasiga ega bo'lishi kerak.</li> </ul>	<p><b>IX. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
<p><b>5.</b></p> <p><b>X. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va ustubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>	<p><b>6.</b></p> <p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. A. Mark, P. Friend James Fundamentals of Occupational Safety and Health. Berman Press. Германия, 2007</li> <li>2. Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi./Darslik.-T.: "Tafakkur qanoti", 2015.-336b.</li> <li>3. Ibragimov E.I., S. Gazinazarova, O.R. Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik. -T.:TIMI, 2014.-536 b.</li> <li>4. Yuldashev O.R., Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik.-T.: "Toshkent-Iqtisodiyot", 2014.-268 b.</li> <li>5. Narziyev Sh.M., Kurbonov Sh.X. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma.-T.: "Yangi nashr", 2019.-234 b.</li> <li>6. Xolbayev B.M., Raximov O.D., Maxmatqulov N.I. Hayot faoliyati</li> </ol>

<p>xavfsizligi. Darslik (1-qism). – T.: «Voriz–nashriyot», 2020. 304 b</p> <p>7. Tog'ayev J.X. Sanoat sanitarriyasi va mehnat gigienasi. O'quv qo'llanma-Qarshi "INTELLEKT" 2023.-240 b.</p> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p>	<p>7. O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) 22 sentabr 2016 yil №O'RQ-410.</p> <p>8. Ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ҳодисаларни ва ҳодимлар саломатлигининг бошқа хил зарарланишини текшириш ва ҳисобга олиш тўғрисидаги Низом. Вазирлар Маҳкамасининг қарори № 286, 06.06.1997, –Т.: 1997.</p> <p><b>Axborot manbalar</b></p> <p>9. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.</p> <p>10. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>11. <a href="http://www.mehnat.uz">www.mehnat.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi.</p> <p>12. <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.</p>	<p>7. Fan dasturi Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Ustubiy Kengashining 2023-yil ___dagi - sonli qarori bilan tasdiqlangan.</p>	<p><b>8.</b></p> <p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b></p> <p>Raximov O.D.- QarMII "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" kafedrasini mudiri.</p> <p>Tog'ayev J.X.- QarMII "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" kafedrasini assistenti.</p>	<p><b>9.</b></p> <p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>A.Q.Ergashev – Respublika shoshilinch Tibbiy yordam Ilmiy markazi Qashqadaryo filiali "Kardiologiya bo'limi" boshlig'i</p> <p>O.Mirzayev- "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" kafedrasini dotsenti</p>
---	---	---	--	---